

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2026-yil "29" yanvar da
190 — son bilan

“RO‘YXATGA OLINGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruvining

2026-yil "29" yanvar dagi
11/3 — sonli qaroriga

ILOVA



**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida
ajratilgan kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish (restrukturizatsiya)
Tartibi**

“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB
ICHKI ME‘YORIY HUJJAT

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida
ajratilgan kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish (restrukturizatsiya)
Tartibi**

I. Umumiy qoidalar

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish Tartibi (keyingi o‘rinlarda – “Tartib”), “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Bank siri to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari, “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” va Osiyo taraqqiyot banki konsultantlari takliflari va “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – “bank”)ning ustavi, ichki qoidalar hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqildi.

2. Kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish (restrukturizatsiya) — bu ma‘lum bir iqtisodiy yoki boshqa qiyinchiliklar sababli og‘ir vaziyatga tushib qolgan va kredit (kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar)ni dastlabki shartlarda to‘lay olmaydigan qarz oluvchiga moliyaviy yukni kamaytirish uchun mavjud kredit shartnomasi shartlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq amaliyot.

3. Bank qarzdorning moliyaviy ahvolidagi zaifliklar yoki belgilangan muddatda qarzni qaytarmaganligi sababli kreditlarni qayta moliyalashtirish, muddatini cho‘zish yoki boshqa shaklda o‘zgartirish orqali kreditlarni qayta ko‘rib chiqishi mumkin.

4. Ba‘zan qarzdor vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunday hollarda kredit to‘lov jadvalini qayta tuzish — ya‘ni asosiy qarz va/yoki foizlar to‘lovlarini uzoqroq muddatga cho‘zish — muammoli kreditni boshqarishning maqbul chorasi hisoblanadi.

5. Kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish odatda kreditning amaldagi foiz stavkasini o‘zgartirish, kreditning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish, oraliq to‘lov grafiklarini o‘zgartirish, kreditning asosiy qarzdorligini va/yoki foizlarni to‘lash muddatini kechiktirish yoki uzaytirish kabi amaliyotlarni o‘z ichiga oladi.

Bunda quyidagilar mustasno:

kredit foiz stavkasining o‘zgartirilishi, ya‘ni shartnomada belgilangan o‘zgaruvchan foiz stavkasi pasayishi munosabati bilan foiz stavkasining pasaytirish holatlari;

asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan qisman voz kechilishi, aktivning foydalanilmagan qismi kamaytirilishi;

foizlar va/yoki asosiy qarzga doir to‘lovlarning bir qismi yoki barchasidan voz kechilishi;

kreditning asosiy qismi va/yoki foizlarining to‘lash muddati kechiktirilishi yoki uzaytirilishi, mijozni moliyalashtirishni boshlash muddati o‘zgarishi hisobiga to‘lov grafigining yoki to‘lovlar to‘lanadigan oy ichida to‘lov sanasining o‘zgartirilishi;

ta‘minot turining o‘zgarishi, ya‘ni kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta‘minotdan chiqarilgan hamda kredit summasini garov summasiga nisbati bankning ichki hujjatlarida belgilangan chegaralardan ko‘p bo‘lmagan holatlar.

Tartibda quyidagi qisqartma va atamalardan foydalanilgan:

Qisqartma va atama	To'liq shakli
Bank	"Biznesni rivojlantirish banki" ATB
O'zRMB	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
EOS	Erta ogohlantirish signallari (indikator)
NPL	Me'yoriy hujjatlar talablariga ko'ra "qoniqarsiz", "shubhali", "umidsiz" deb tasniflangan kreditlar
MSE	Mikro va Kichik korxona
ME va Corporate	O'rta va Korporativ korxona
RM	Korporativ biznes departamentining BXOdagi Mijoz bilan ishlovchi menejeri
Monitoring guruhi	Hududiy boshqarma rahbari/o'rinbosari, BXO boshlig'i, monitoring bo'limi boshlig'i va mas'ul xodimi
Kredit qo'mita	Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish amaliyotlari bo'yicha qaror qabul qiluvchi vakolatli organ
"Smart office" dasturi	Elektron hujjat aylanish dasturi

II. Tartibning maqsadi, tamoyillari va afzalliklari

6. Mazkur Tartibning maqsadi – og'ir sharoitlarga tushib qolgan bank mijozlari/tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kredit qarzdorliklarini qaytarilishini ta'minlash, shu bilan birga bankning iqtisodiy yo'qotishlari va kredit risklarini kamaytirishdir.

7. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishning asosiy maqsadlari:

Bank tomonidan qarzdorning moliyaviy barqarorligini qo'llab-quvvatlash:

- mijozni bankrot bo'lishdan saqlash;
- iqtisodiy qiyinchiliklar davrida qarzdorga yengillik va qulayliklar yaratish.


Kreditning so'ndirish imkoniyatini oshirish:

- kredit to'lovlari grafigini qarzdorning pul tushumlariga moslashtirgan holda o'zgartirish;

- qarzdorning moliyaviy salohiyatidan kelib chiqib, real to'lov rejasini tuzish.

Bankda aktivlarni yo'qotish riskini kamaytirish:

- qarzdorliklarni qasddan qaytarmaslik yoki noqonuniy yo'qotishlarni oldini olish;
- muammoli aktivlarni standart aktiv sifatida sog'lomlashtirish.



Iqtisodiyot va bozor barqarorligini ta'minlash:

- makroiqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida mijozni qo'llab-quvvatlash;
- bank tizimi barqarorligini saqlash va ta'minlash.

Mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlikni saqlash:

- qarzdor bilan ishonchli munosabatni yo'qotmaslik.

8. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish tamoyillari:

kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish qarz oluvchi manfaatlarini ko'zlab tuzilgan kelishuv bo'lib, bu jarayon qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklari vaqtinchalik xarakterga ega bo'lganda va qarzdor o'z majburiyatlarini ma'lum bir muddatlarda bajara olish holati mavjud bo'lganda amalga oshirilishi lozim;

bank tizimida barcha shartlari qayta ko'rib chiqilgan amaliyotlar to'g'ri bajarilishi, bankning IABS axborot tizimida qayd qilinishi va ular bo'yicha doimiy hisobotlar yuritib borilishi lozim;

bank va qarzdor o'rtasidagi muzokaralar ixtiyoriy ravishda tomonlar manfaatlariga maqbul bo'lgan amaliy yechimlarni topish maqsadida o'tkazilishi kerak;

qarzdor moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan dastlabki davrlarda kreditor (bank) bilan aloqada bo'lishi juda muhim. Chunki bu davrda kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha muzokaralarni tezroq boshlash ikkala tomonlar manfaatiga mos keladi;

bank qarzdorga kredit shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlarini aniq va ravshan ko'rsatib berishi lozim;

qarzdor bank tomonidan belgilangan muddat ichida zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etishi shart;

kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha muzokaralar olib borilayotganda bank qarzdorlikni undirishni garov mulkiga qaratish (kredit ta'minotlarini sotish/realizatsiya qilish) jarayonini boshlamay turadi. Agar bu jarayon boshlangan bo'lsa, bank ularni to'xtatib turadi. Shuningdek, qarzdor ham bank bilan munosabatlarga yoki boshqa holatlarda o'z to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan harakatlarni amalga oshirmasligi shart.

9. Bank qarzdorning kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha qilgan murojaatiga tezkorlik bilan qisqa muddatlarda munosabat bildirishi lozim.

10. Qarzdor kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish yuzasidan bank takliflarini ko'rib chiqish va so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha yetarlicha vaqtga ega bo'lishi lozim.

11. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar qarzdor bilan kelishilgan, bankning ichki me'yoriy hujjatlari talablariga mos hamda oqilona to'lov grafigiga asoslangan bo'lishi lozim.

12. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishdagi tahlil va qaror qabul qilish jarayoni bilan bog'liq barcha hujjatlar bankning IABS dasturiga kiritilishi, kredit yig'majildiga tikilishi va saqlanishi shart.

13. Ushbu tartib kuchga kirgandan keyin kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq qilingan amaliyotlar Bank kredit portfelida ma'lum bir kredit mahsuloti bo'yicha shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar salmog'ining 10 foizidan oshgan

bo'lsa, u holda ushbu kredit mahsuloti, kreditlash tartibi, kredit berish qoida va tamoyillari to'liq qayta ko'rib chiqilishi lozim.

14. 36 oy muddatgacha ajratilgan kreditlar bo'yicha bir vaqtning o'zida bitta kredit qarzdorligi bo'yicha amaldagi kredit shartnoma shartlariga 2 tadan ortiq (kreditning amaldagi foiz stavkasini o'zgartirish, kreditning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish, oraliq to'lov grafiklarini o'zgartirish, kreditning asosiy qarzdorligini va/yoki foizlarni to'lash muddatini kechiktirish yoki uzaytirish kabi amaliyotlar) shartlarni qayta ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yilmaydi, ya'ni bir vaqtning o'zida shartlardan faqat ikkitasi qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

15. 36 oy va undan yuqori muddatga ajratilgan kreditlar bo'yicha bir vaqtning o'zida bitta kredit qarzdorligi bo'yicha amaldagi kredit shartnoma shartlariga 4 tadan ortiq (kreditning amaldagi foiz stavkasini o'zgartirish, kreditning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish, oraliq to'lov grafiklarini o'zgartirish, kreditning asosiy qarzdorligini va/yoki foizlarni to'lash muddatini kechiktirish yoki uzaytirish kabi amaliyotlar) shartlarni qayta ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yilmaydi.

16. Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishda kreditning oxirgi qaytarish muddati dastlab tasdiqlangan/tuzilgan to'lov grafigiga nisbatan 12 oydan (ajratilgan kredit bo'yicha jalb qilingan resurs muddatlarini inobatga olgan holda) ortiq muddatga uzaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, Farmonlari, Hukumat qarorlari, topshiriq xatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi topshiriqlari hamda Hukumat komissiyasining yig'ilish bayonlarida yuklatilgan topshiriqlar bundan mustasno).

17. Uzoq muddatli kreditlar bo'yicha kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishda kreditning oxirgi qaytarish muddati dastlab tasdiqlangan/tuzilgan to'lov grafigiga nisbatan 24 oydan (ajratilgan kredit bo'yicha jalb qilingan resurs muddatlarini inobatga olgan holda) ortiq muddatga uzaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, Farmonlari, Hukumat qarorlari, topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi topshiriqlari, Hukumat komissiyasining yig'ilish bayonlarida yuklatilgan topshiriqlar hamda Hukumat a'zolarining alohida xatlarida yuklatilgan topshiriqlar bundan mustasno).

18. Mijozga ajratilgan bir kredit doirasida kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish kredit muddati davomida ikki marotaba amalga oshirilishi mumkin. Bunda, birinchi va ikkinchi qayta ko'rib chiqish amaliyotlari o'rtasidagi muddat 12 oydan ko'p bo'lishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, Farmonlari, Hukumat qarorlari, topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi topshiriqlari, Hukumat komissiyasining yig'ilish bayonlarida yuklatilgan topshiriqlar hamda Hukumat a'zolarining alohida xatlarida yuklatilgan topshiriqlar bundan mustasno).

19. Bankning kreditlash va undiruv jarayonlariga mo'ljallangan dasturiy tizimlari kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishning turli bosqichlari va holatlarini kuzatib borilishiga muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak.

20. Fors-major, favqulodda holatlar yoki bozor sharoitlaridan kelib chiqib istisno tariqasida ommaviy tarzda restrukturizatsiya holatlarida kredit portfeli darajasida bank tashabbusi bilan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish amaliyotlari qo'llanishi mumkin.

Bu bo'yicha hukumat darajasida tegishli hujjatlar tasdiqlangan bo'lishi va unga asosan bank Kredit qo'mitasi qarori yoki Kuzatuv kengashi tomonidan vakolat berilgan kollegial organ qarori qabul qilinishi lozim.

21. Bank qarzdordan olingan ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlaydi va qarzdorning holatiga oid hech qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etilishiga yo'l qo'ymaydi. Qonuniy talab qilingan yoki qarzdorning yozma roziligi olingan holatlar bundan mustasno.

22. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishning afzalliklari:
qarzdorga iqtisodiy va moliyaviy qiyinchiliklarni yengib o'tishga, majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajarishga va tadbirkorlik faoliyatini samarali davom ettirishiga ko'maklashadi;

qarzdor va qarzdorlar guruhi bilan barqaror va ijobiy munosabatlarni saqlab qolish, yetarli rentabellikni ta'minlashga sharoit yaratadi. Kredit shartnomasining majburiyatlarini bajarilmasligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ijtimoiy va makroiqtisodiy ta'sirlarning oldini oladi;

ishlar soni va sud majlislari davomiyligini kamayishi hisobiga, og'ir sud jarayonlari qisqartiriladi;

sud jarayonlariga qaraganda samaraliroq natijalarga erishiladi, chunki bahs va munozaralar tezroq hal etiladi va qarzdorlik to'liq (katta qismi) qaytarilishi ta'minlanadi.

III. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishning belgilari va shartlari qayta ko'rib chiqilmaydigan kreditlar

23. Quyidagilar kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishning asosiy belgilari va omillari hisoblanadi:

majburiyatlarini bajara olmaslik (defolt), majburiyatlarni bajarilmaslik sabablaridan qat'iy nazar moliyaviy qiyinchilik belgisi hisoblanadi;

qarzdor defolt holatida bo'lmasa ham agar unga yengillik berilmasa, yaqin kelajakda defoltga tushish ehtimoli mavjud bo'ladi. Masalan, "Biznesni rivojlantirish banki" ATBda yoki istalgan boshqa tijorat bankida qarzdor tomonidan kredit to'lovlari muntazam kechiktirib kelinishi bunday holatga misol bo'ladi;

mijozning asosiy faoliyat turi, hisob kitoblari va prognozlariga ko'ra mavjud kredit shartnomalari shartlariga asosan pul tushumlari miqdori kredit to'lovlari so'ndirish uchun yetarli bo'lmaydi;

ichki kredit reytingi mezonlariga muvofiq qarzdorning mavjud qiyinchiliklari, qarzdorlik so'ndirilishida qiyinchilikni yuzaga keltiruvchi xatarlar sifatida baholanadi;

moliyaviy qiyinchiliklar hatto qarzdorlikni so'ndirish bo'yicha kechikishlar bo'lmasa ham aniqlanishi mumkin. Masalan, biznesdagi asosiy shaxsning vafoti, soha yoki kompaniyaga qisqa muddatli salbiy ta'sir ko'rsatishi kutilayotgan qonun/normalarning o'zgarishi, boshqa moliya muassasasidagi qarzlarning kechikishlari va hokazo.

Ushbu tartibning "Erta ogohlantirish signallari" bo'limidagi keltirilgan sabablar ham kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishning asosiy belgilari va omillari hisoblanadi.

24. Quyidagi hollarda kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish tavsiya etilmaydi:

Ishonchli kreditlar;

Tugatish holatidagi bankrotlik bosqichida bo'lgan kompaniyalarga ajratilgan kreditlar;

Kredit mablag'lari maqsadsiz ishlatilgan kreditlar;

Kreditlash tartibi talablari doirasida kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan kredit qaytmaslik xatari hamda garov mulklari bo'yicha sug'urta polislari mavjud bo'lmagan yoki polis muddati tugagan kreditlar;

Qarzdorlikni qaytarish muddati umumiy 24 oy va undan ortiq muddatga uzaytirilgan kreditlar;

Ikki yoki undan ortiq marotaba shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar;

Dastlab tasdiqlangan/tuzilgan to'lov grafigiga muvofiq kredit muddati yakunlanishiga olti oydan kam vaqt qolgan kreditlar;

Ayni vaqtda shartlari qayta ko'rib chiqilgan hisobvaraqa yuritilayotgan kreditlar;

Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash uchun ajratilgan kreditlar;

Ta'minoti to'liq kafolat, sug'urta polisi yoki kafillik bilan ta'minlangan kreditlar;

Yuridik shaxslarga ajratilgan maqsadsiz kreditlar (maqsadsizlik sharti asosida ajratilgan);

Ajratilgan kredit bo'yicha vakolatli kollegial organ qarorida keltirilgan dastlabki shartlar asossiz bajarilmagan kreditlar;

Balansdan tashqari hisobvaraqa yuritilayotgan kreditlar (95413).

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, Farmonlari, Hukumat qarorlari, topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi topshiriqlari, Hukumat komissiyasining yig'ilish bayonlarida yuklatilgan topshiriqlar hamda Hukumat a'zolarining alohida xatlari mavjud bo'lganda 24-banddagi me'yorlar bajarilmasa ham Bosh bank kredit qo'mitasi tomonidan mustaqil ko'rib chiqilishi va ijobiy qaror qabul qilinishi mumkin.


26. Moliyalashtirilgan loyihaning kelgusi istiqboli, mijoz faoliyati va pul tushumlari barqarorligi yetarlicha o'rganilmasdan, nosog'lom yoki qaytmaslik ehtimoli yuqori bo'lgan kreditlarning har qanday shartini qayta ko'rib chiqish haqiqiy muammoni yashirish hisoblanadi va bunday amaliyotga yo'l qo'yilmaydi.

IV. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha ko'rsatmalar

27. Kredit shartlarni qayta ko'rib chiqish amaliyoti O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o'rinlarda – O'zRMB) me'yoriy hujjatlari va bankning ichki qoidalari talablari doirasida amalga oshirilishi lozim.

28. Qarzdor iqtisodiy, siyosiy yoki huquqiy sabablar tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan taqdirda bank unga kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar berishi mumkin.

29. Kredit shartlarni qayta ko'rib chiqish jarayoni quyidagi shartlarning istalgan biriga o'zgartirish kiritishni o'z ichiga olishi mumkin. Jumladan, yakuniy to'lov



muddatini uzaytirish, qaytarilishi lozim bo'lgan summani o'zgartirish, kredit to'lovi grafigini o'zgartirish, foiz stavkasini qayta belgilash, jumladan, o'zgaruvchan foiz stavkadan qat'iy stavkaga o'tkazish va boshqalar.

30. Bunda quyidagi holatlar mustasno:

Shartnomada belgilangan o'zgaruvchan foiz stavkasi pasayishi munosabati bilan foiz stavkasining pasaytirilishi;

Asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan qisman voz kechilishi, aktivning foydalanilmagan qismi kamaytirilishi;

Foizlar va/yoki asosiy qarzga doir to'lovlarning bir qismi yoki barchasidan voz kechilishi;

Kreditning asosiy qismi va/yoki foizlarining to'lash muddati kechiktirilishi yoki uzaytirilishi, loyihani moliyalashtirishni boshlash muddati o'zgarishi hisobiga to'lov grafigining yoki to'lovlar to'lanadigan oy ichida to'lov sanasining o'zgartirilishi;

Mavjud garov ta'minotini qiymati shunga teng yoki undan yuqori bo'lgan boshqa aktiv bilan almashtirish, kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarilishi;

Foizlarning kapitalizatsiya qilinishi.

31. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish uchun qarzdorning yozma roziligi (arizasi) olinishi shart.

32. Agar mijoz bank tomonidan belgilangan shart va talablarga rozi bo'lsa, kredit shartlarni qayta ko'rib chiqish jarayoni tegishli kollegial organ qaroriga asosan dastlabki kredit shartnomasiga o'zgartirishlar kiritilgan holda amalga oshiriladi.

33. O'rganish davomida mijozning kelgusidagi moliyaviy holatiga shubha uyg'onsa, shuningdek, qarzdorlikni qaytarish bo'yicha asosli so'ndirish istiqbollari mavjud bo'lmasa, ushbu kredit shartlarini qayta ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yilmaydi.

34. Faoliyatida firibgarlik va shu kabi boshqa noqonuniy xatti-harakatlar aniqlangan qarzdorlarning krediti shartlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

35. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan kredit sifati O'zRMBning "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizom" (ro'yxat raqami: 2696-son, 2015-yil 14-iyul) talablari asosida qayta tasniflanadi.

36. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar sifati "substandart", "qoniqarsiz" yoki "shubhali" deb tasniflangan taqdirda, mazkur kreditlarning ketma-ket kamida 3 ta to'lovlari (asosiy qarz, foiz va boshqa to'lovlar) kamida 6 oy davomida to'liq va o'z vaqtida to'langan taqdirda, ushbu kreditlar (aktiv) sifatining tasnifi bir pog'onaga ko'tarilib, yaxshilab borilishi mumkin. Bunda, kreditni qaytarish grafigi bo'yicha to'lov boshlangan oydan shartnomaning oxirgi muddatiga qadar har oyda teng (proporsional) to'lovlar asosida qaytarilishi belgilangan bo'lsa ketma-ket 3 ta to'lovlar yoki shu miqdorga teng 3 tadan ortiq to'lovlar o'z vaqtida va to'liq to'langan bo'lishi lozim.

37. Shartlari qayta ko'rib chiqilib, aktiv sifati "umidsiz" deb tasniflangan kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar (asosiy qarz, foiz va boshqa to'lovlari) to'liq to'langanda va tasdiqlangan to'lov grafigiga asosan kamida 12 oy davomida hamda asosiy qarz qoldig'ining 10 foizidan kam bo'lmagan miqdorda qarzdorliklari to'liq va o'z

vaqtida to'langan taqdirda, ushbu aktiv sifati "shubhali"ga o'tkazilishi mumkin. Bunda, aktivlarni qaytarish grafigi bo'yicha to'lov boshlangan oydan shartnomaning oxirgi muddatiga qadar har oyda teng (proporsional) to'lovlar asosida qaytarilishi belgilangan taqdirda ketma-ket 6 ta to'lov yoki shu miqdorga teng 6 tadan ortiq to'lovlar o'z vaqtida va to'liq to'langan bo'lishi lozim.

38. Mijoz kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida murojaat qilgan vaqtda, uning holati so'ralgan imtiyozlar doirasida mavjud talablarga javob berishi, kredit tarixi va yuzaga kelgan muammoning asosiy sabablari inobatga olinishi lozim.

39. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishda kreditning oxirgi qaytarish muddati uzaytirilayotgan bo'lsa, uning mos resurslar bilan ta'minlanganligi inobatga olinishi lozim.

40. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish jarayonida mijozga qo'shimcha kredit ajratilishi ko'zda tutilsa, bu holatda dastlab kredit ajratilishida qaror qabul qilgan kollegial organdan yuqori turuvchi vakolatli organ qarori (ruxsati) olinishi lozim.

41. Har qanday kredit bo'yicha kreditning oxirgi qaytarish muddati eng ko'pi bilan dastlabki qaytarish sanasiga nisbatan 24 oydan ortiq muddatga uzaytirmasligi lozim (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, Farmonlari, Hukumat qaror va topshiriqlari bundan mustasno).

Kredit shartlarni qayta ko'rib chiqish turlari, ularning asosiy xususiyatlari va tavsiya etiladigan holatlar.

Restrukturizatsiya turi	Xususiyat – tushuntirishlar	Muvofiqlik holatlari
Uzaytirish (prolongatsiya)	Kreditning dastlabki qaytarish muddati va kredit bo'yicha tuzilgan dastlabki to'lov jadvali muddatlari uzaytiriladi. Eng ko'pi bilan 24 oygacha. Kredit miqdori o'zgarmaydi. To'lov sanasi, miqdori va davriyligi qayta ko'rib chiqiladi. Bankning asosiy axborot tizimida	Mijozning pul tushumlari bo'yicha vaqtincha muammolar mavjud bo'lgan holatlarda. Faoliyati moliyaviy barqaror va kelgusida aniq daromad olish salohiyati mavjud holatlarda. Majburiyatlarini qasddan bajarmaslik holati mavjud bo'lmagan holatlarda.
Foiz stavkasini pasaytirish (o'zgartirish)	Foiz stavkalari pasaytiriladi/o'zgartiriladi (qat'iy yoki o'zgaruvchan shaklda qo'llaniladi).	Faqat qarshi taklif yoki qayta moliyalashtirish (mijozni yo'qotish) xavfi mavjud bo'lgan hollarda, shuningdek, bozordagi o'zgarishlar tasdiqlangan taqdirda (Aktiv va

Restrukturizatsiya turi	Xususiyat – tushuntirishlar	Muvofiqlik holatlari
		passivlarni boshqarish qo‘mitasi bilan kelishilgan holda) qo‘llaniladi.
To‘lov ta’tili	Asosiy qarz yoki foiz to‘lovlari bo‘yicha vaqtinchalik to‘lov ta’tili (moratoriy) joriy etish. Foizlar bo‘yicha — ko‘pi bilan 3 oyga, asosiy qarz bo‘yicha – ko‘pi bilan 6 oyga vaqtincha to‘xtatib turish imkoniyati.	Bozor muhitidagi keskin o‘zgarishlar yoki fors-major holatlar sababli vaqtincha daromadning kamayishi yoki to‘xtashi holatlari.
Qarzlarni birlashtirish	Bir nechta amaldagi kreditlarni yagona kredit shartnomasi yoki moliyaviy majburiyatlar doirasida birlashtiriladi (konsolidatsiya qilinadi). Kredit shartlari va muddati qayta ko‘rib chiqilib, yangi kelishuv asosida o‘zgartiriladi.	Qarz miqdori yuqori bo‘lgan, majburiyatlari turli kreditorlar o‘rtasida tarqoq holda taqsimlangan mijozlar bo‘yicha. Mijoz bank bilan faol hamkorlik qilgan va o‘zining barcha moliyaviy majburiyatlarini to‘liq oshkora taqdim etgan hollarda.
Imtiyozli davr — ushbu holat kredit ajratishda belgilanadigan imtiyozli davr bo‘lib, shartlarni qayta ko‘rib chiqish turi hisoblanmaydi	To‘lovlar oldindan belgilangan boshlang‘ich davrga kechiktirilgan holda amalga oshiriladi. Ushbu mexanizm/konditsiya kreditning boshlang‘ich rasmiylashtirish bosqichida qo‘llaniladi.	Yangi tashkil etilgan biznes subyektlari yoki startup loyihalarida. Daromad olish jarayoni kechikkan loyihalarda.
Kredit portfeli doirasida kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish	Muayyan mijozlar segmentiga nisbatan ommaviy tarzda kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish tartibi qo‘llaniladi. Makroiqtisodiy omillar yoki aniq bir soha bilan bog‘liq	Urushlar, pandemiya yoki alohida bir iqtisodiy sohaning inqirozga uchrashi kabi omillar ta’sirida moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelgan holatlarda. Mazkur qaror bankning Kredit qo‘mitasi yoki boshqa vakolatli kollegial organ

Restrukturizatsiya turi	Xususiyat – tushuntirishlar	Muvofiqlik holatlari
	fors-majorlar ta'sirida yuzaga kelgan holatlarda. Barcha tegishli mijozlar uchun yagona (bir xil) shartlar qo'llaniladi hamda huquqiy kelishuvlar tuziladi.	qarori asosida amalga oshiriladi.

V. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish jarayonlari

42. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish faqat qarzdor tomonidan ushbu masalada yozma murojaat (ariza) kelib tushgandan so'ng ko'rib chiqiladi.

43. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi mijoz arizasi quyidagi hujjat va ma'lumotlar bilan birgalikda hujjatlashtirilishi kerak:

Garov (ta'minot) bo'yicha batafsil ma'lumotlar;

Bank rekvizitlari;

Moliyaviy yoki soliq hisoboti;

Daromad prognozlari;

Kreditni so'ndirish istiqbollari (biznes-rejaga tegishli o'zgartirishlar kiritish);

Uchinchi shaxs kafolati yoki kafilligi;

Garov, kafillik ta'minotlarini yoki kredit shartlarini o'zgartirishga mos holda tegishli o'zgartirishlarni kiritish to'g'risida ma'lumotlar;

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ kompensatsiyasi yoki kafilligi olingan, xalqaro yoki respublika miqyosidagi tashkilotlarning kredit liniyalari hisobidan ajratilgan kredit shartlarini o'zgartirishda tegishli ruxsatlarni olish talab etiladi.

44. Monitoring guruhi tomonidan Mikro va Kichik korxona, O'rta yoki Korporativ biznes segmentiga tegishli korxonalarning kelajakda kreditni qaytara olish imkoniyatlarini (biznesni hayotiyligini) va istiqboli ularning pul oqimlari hamda quyida keltirilgan hujjatlar tahlili asosida baholanadi:

O'tgan va joriy yil uchun moliyaviy hamda soliq hisobotlari;

Kelajak prognozlari va kreditni so'ndirish istiqbollari;

Kredit bo'yicha Kredit-axborot tahliliy markazi (KATM) va boshqa tashqi manbalardan olingan ma'lumotlar;

Kredit ajratilishida Kredit siyosati, bankning kreditlash xizmatlariga oid ichki tartib va qoidalariga, shuningdek, kredit mahsuloti pasporti talablariga rioya qilinganligi.

45. Quyidagi kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishda pul mablag'lari oqimi baholanishi inobatga olinishi mumkin:

Kreditni oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish (prolongatsiya) yoki ichki to'lov grafigini o'zgartirish;

Foizlar va/yoki asosiy qarzga doir to'lovlarning bir qismi yoki barchasidan voz kechilishi (asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan qisman voz kechilishi, kreditning foydalanilmagan qismi kamaytirilishi kabilar bundan mustasno);

Moratoriy (ko'pi bilan foiz to'lovlariga 3 oy va asosiy qarz to'lovlariga 6 oy).

46. Kredit bo'yicha mavjud garov mulkini almashtirish jarayonida bank tomonidan qo'shimcha talab va shartlar belgilanishi mumkin.

47. Monitoring guruhi garovga qo'yilgan garov mulkning huquqiy va texnik bahosini ta'minlaydi.

48. Bankning amaldagi kredit ta'minotlari bilan ishlash tartibida ko'rsatib o'tilgan garov qiymatini kelishish guruhi yoki boshqa bank qoidalariga asosan garov qiymatini tasdiqlashi lozim.

49. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish quyidagi keltirilgan usullarda amalga oshiriladi:

a. Mikro va Kichik (MSE) korxonalarga ajratilgan har qanday kreditlar (shu jumladan NPL), O'rta va Korporativ biznes segmentiga tegishli bo'lgan shartlari qayta ko'rib chiqilayotgan davrda muammoli kredit (NPL) toifasida bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan iqtisodiyotning ma'lum bir sohasiga ajratilgan kreditlar (to'qimachilik, tikuv-trikotaj, issiqxona, bolalar bog'chasi va boshqalar) shartlarini ommaviy qayta ko'rib chiqish:

- mijoz BXO rahbari nomiga kreditni yangi shartlarda qaytara olish istiqbollari asoslantirilgan yangi biznes reja va tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan murojaat qiladi.

- BXO rahbari ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni hududiy boshqarmaga yuboradi, hududiy boshqarma boshlig'i monitoring bo'limiga yo'naltiradi.

- hujjatlar to'plami kelib tushgandan keyin hududiy boshqarmaning kredit qarzдорliklari bilan ishlash bo'yicha boshliq o'rinbosari, monitoring bo'limi boshlig'i va mas'ul xodimi mijozning faoliyat joyiga chiqqan holda monitoring o'tkazadi. Monitoring jarayonida xodimlar tomonidan arizada keltirilgan sabablar, haqiqatda yuzaga kelgan vaziyat o'rganilib, kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish istiqbollari baholanadi. O'rganish natijasi yuzasidan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq yoki yo'qligi bo'yicha monitoring dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

- dalolatnoma hududiy boshqarma rahbari o'rinbosari, monitoring bo'limi boshlig'i, mas'ul xodim va mijoz tomonidan imzolanadi.

- bankning hududdagi Monitoring bo'limi xodimi mijozning moliyaviy holati, zaifliklari, qarzni qaytarmaganligi sabablari, pul tushumlari, biznes reja ko'rsatkichlarini bajarilishi, qarz yuki, kredit tarixi, ta'minot yetarililigi va ularning bugungi kundagi holati, narxi, kafilning moliyaviy holati tahlili, sug'urta polislarining amal qilish muddatlari, kreditni maqsadli ishlatilganligi, ajratilgan sanadan bugungi kungacha amalga oshirilgan monitoringlari, shartlari qayta ko'rib chiqilganligi, kollegial organ qarorlarining bajarilishi va boshqa ma'lumotlarini tahlil qilib, kreditni yangi shartlarda qaytarish asoslantirilgan biznes rejaga muvofiq kreditni qaytara olish istiqbollarini o'rganib, xulosa

tayyorlaydi. Xulosa mas'ul xodim, monitoring bo'limi boshlig'i, BXO rahbari tomonidan imzolab, hududiy Kredit komissiyasi muhokamasiga qaror qabul qilish uchun kiritiladi.

- hujjatlar hududiy Kredit komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilib ijobiy qaror qabul qilinsa, yig'ilgan barcha hujjatlar ilova qilinib, bankning "Smart office" dasturi orqali Bosh bankka yuboriladi. Aks holda mijozga BXO rahbari imzosi bilan asoslantirilgan javob xati beriladi.

- "Smart office" dasturi orqali hujjatlar tegishli tartibda Monitoring departamentiga kelib tushgan hujjatlarni mas'ul xodim o'rganib chiqib, filial tomonidan taqdim qilingan mavjud hujjatlar asosida xulosa tayyorlaydi yakuniy qaror qabul qilish uchun bank Kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritadi.

- o'z navbatida Kredit qo'mitasi tomonidan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

- shundan so'ng, Kredit qo'mitasi kotibi tomonidan qaror ko'chirmasi "Smart office" dasturi orqali tegishli departamentlarga va hududiy bo'linmalarga ijro uchun yetkaziladi.

- hududdagi Monitoring bo'limi mas'ul xodimi ushbu qaror shartlari bilan mijozni tanishtirgan holda kredit, garov, sug'urta va boshqa tegishli shartnomalarga qo'shimcha kelishuvlarni rasmiylashtirib, belgilangan tartibda kredit shartlarini o'zgartirish bo'yicha dasturiy amaliyotlarni bajarish uchun kreditlarni boshqarish bo'limi xodimiga yo'naltiradi.

- kreditlarni boshqarish bo'limi xodimi kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq barcha hujjatlarni elektron nusxasini IABS bazasiga biriktirib, dasturda tegishli amaliyotlarni bajaradi.

- hududdagi monitoring bo'limi xodimi kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq barcha hujjatlarni asl nusxalarini kredit yig'imi jildiga tikilishini va saqlanishini ta'minlaydi.

- agar mijoz muammoli kredit toifasiga (90 kundan oshgan qarzdorligi mavjud bo'lsa, muddati to'liq o'tgan, muddatidan oldin undirish choralari ko'rilaётgan, sud yoki ijro jarayonida bo'lgan) mansub bo'lsa, kreditlarni shartlarini qayta ko'rib chiqishda bankning Muammoli aktivlar bilan ishlash va undiruv departamentidan sud va undiruv jarayonlarining holati bo'yicha ma'lumot olinadi.

b. O'rta yoki Korporativ biznes segmentiga tegishli, kredit shartlarini qayta ko'rib chiqilayotgan davrda muddati o'tgan qarzdorliklari 90 kundan oshmagan kreditlar bo'yicha:

- mijoz BXO rahbari nomiga kreditni yangi shartlarda qaytara olish istiqbollari asoslantirilgan yangi biznes reja va tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan murojaat qiladi;

- BXO rahbari ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni hududiy boshqarmaga yuboradi, hududiy boshqarma boshlig'i monitoring bo'limiga yo'naltiradi.

- hujjatlar to'plami kelib tushgandan keyin hududiy boshqarma rahbari, BXO boshlig'i, monitoring bo'limi boshlig'i va mas'ul xodimi mijozning faoliyat joyiga chiqqan holda monitoring o'tkazadi. Monitoring jarayonida arizada keltirilgan sabablar, haqiqatda yuzaga kelgan vaziyat o'rganilib, kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish

istiqbollari baholanadi. O'rganish natijasi yuzasidan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq yoki yo'qligi bo'yicha monitoring dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

- dalolatnoma hududiy boshqarma rahbari, BXO boshlig'i, monitoring bo'limi boshlig'i, mas'ul xodimi va mijoz tomonidan imzolanadi.

- bankning hududdagi Monitoring bo'limi xodimi mijozning moliyaviy holati, zaifliklari, qarzni qaytarmaganligi sabablari, pul tushumlari, biznes reja ko'rsatkichlarini bajarilishi, qarz yuki, kredit tarixi, ta'minot yetarliligi va ularning bugungi kundagi holati, narxi, kafilning moliyaviy holati tahlili, sug'urta polislarining amal qilish muddatlari, kreditni maqsadli ishlatilganligi, ajratilgan sanadan bugungi kungacha amalga oshirilgan monitoringlari, shartlari qayta ko'rib chiqilganligi, kollegial organ qarorlarining bajarilishi va boshqa ma'lumotlarini tahlil qiladi. Mijoz bilan ishlovchi menejer (RM) bilan birgalikda kreditni yangi shartlarda qaytarish asoslantirilgan biznes reja istiqbollari o'rganib, xulosa tayyorlaydi. Xulosa mas'ul xodim, monitoring bo'limi boshlig'i, BXO rahbari va menejer (RM) tomonidan imzolab, hududiy Kredit komissiyasi muhokamasiga qaror qabul qilish uchun kiritiladi.

- hujjatlar hududiy Kredit komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilib ijobiy qaror qabul qilinsa, yig'ilgan barcha hujjatlar ilova qilinib, bankning "Smart office" dasturi orqali Bosh bankka yuboriladi. Aks holda mijozga BXO rahbari imzosi bilan asoslantirilgan javob xati beriladi.

- "Smart office" dasturi orqali hujjatlar tegishli tartibda Monitoring departamentiga kelib tushgandan so'ng, mas'ul xodim Korporativ biznes departamentida yangilangan biznes reja ko'rsatkichlari va loyihaning istiqbollari o'rganib Kredit qo'mitasiga xulosa berish uchun xizmat yozishmasi yuboradi.

Monitoring departamenti mas'ul xodimi Korporativ biznes departamenti Loyihalarni tahlil qilish va moliyalashtirish boshqarmasi tomonidan berilgan xulosa va filial tomonidan taqdim qilingan mavjud hujjatlar asosida xulosa tayyorlaydi yakuniy qaror qabul qilish uchun bank Kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritadi.

- o'z navbatida Kredit qo'mitasi tomonidan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

- shundan so'ng, Kredit qo'mitasi kotibi tomonidan qaror ko'chirmasi "Smart office" dasturi orqali tegishli departamentlarga va hududiy bo'linmalarga ijro uchun yetkaziladi.

- hududdagi Monitoring bo'limi mas'ul xodimi ushbu qaror shartlari bilan mijozni tanishtirgan holda kredit, garov, sug'urta va boshqa tegishli shartnomalarga qo'shimcha kelishuvlarni rasmiylashtirib, belgilangan tartibda kredit shartlarini o'zgartirish bo'yicha dasturiy amaliyotlarni bajarish uchun kreditlarni boshqarish bo'limi xodimiga yo'naltiradi.

- kreditlarni boshqarish bo'limi xodimi kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq barcha hujjatlarni elektron nusxasini IABS bazasiga biriktirib, dasturda tegishli amaliyotlarni bajaradi.

- hududdagi monitoring bo'limi xodimi kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq barcha hujjatlarni asl nusxalarini kredit yig'ma jildiga tikilishini va saqlanishini ta'minlaydi.

c. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi, Hukumat komissiyasining yig'ilish bayonlarida hamda Hukumat a'zolaridan kelgan xatlarda kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish yuzasidan topshiriq berilgan holatlarda, mijoz O'rta yoki Korporativ biznes segmentiga tegishli har qanday mijozlar bo'yicha arizalarni ko'rib chiqishda yuqorida "b" bo'limda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

d. Agar kredit muammoli kredit (NPL) toifasiga (90 kundan oshgan qarzдорligi mavjud bo'lsa, muddati to'liq o'tgan, muddatidan oldin undirish choralari ko'rilayotgan, sud yoki ijro jarayonidagi) mansub bo'lsa hamda va undiruv jarayonida kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish maqbul yechim sifatida ko'rilsa, Muammoli aktivlar bilan ishlash va undiruv departamentining yozma ma'lumotnomasiga asosan, Monitoring departamenti tomonidan Kredit qo'mitasiga kiritiladi.

e. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha:

Jismoniy shaxslarning moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiynalayotganligi sababli ularning amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish borasidagi arizalari quyidagi holatlarda ko'rib chiqiladi:

- qarzdorning va (yoki) qarzdorning turmush o'rtog'ini (asosiy boquvchi bo'lgan holatda) vafoti;

- qarzdorning yoki uning turmush o'rtog'ining (asosiy boquvchi bo'lgan holatda) sud hukmi bilan qamalishi;

- qarzdorning 1-2 guruh nogironi deb topilishi;

- qarzdor og'ir nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalinishi tufayli ish joyini va daromadini yo'qotishi;

- qarzdor homiladorlik va tug'ish ta'tilini olganda;

- qarzdorning ishsiz va daromadsiz qolishi;

- qarzdorning nazoratidan tashqarida bo'lgan holatlar tufayli (tabiiy yoki texnogen favqulodda vaziyatlar yoki uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari natijasida) uning mulkini yo'qolishi yoki mulkiga jiddiy shikast (talafot) yetishi;

Jismoniy shaxslarga ajratilgan, oxirgi qaytarish muddatigacha 18 oy va undan ko'p muddat qolgan kreditlari bo'yicha kreditning oxirgi qaytarish muddati uzaytirilmaydi, kredit asosiy qarz to'lovlari kreditning qolgan muddatiga teng taqsimlanadi, foiz to'lovlari esa shartlari qayta ko'rib chiqilgan davr uchun muddati o'tgan hisob raqamlarga o'tkazilmaydi, neustoyka (jarima, penya) hisoblanmaydi.

Oxirgi qaytarish muddatiga 18 oy qolgan kreditlar resurs muddati, kredit turi va uzaytirish sabablaridan kelib chiqib, 10 oygacha uzaytirishi mumkin. Bunda kredit asosiy qarz to'lovlariga 10 oygacha imtiyoz bergan holda uzaytirilayotgan muddatiga teng taqsimlanadi, foiz to'lovlari esa shartlari qayta ko'rib chiqilgan davr uchun muddati o'tgan hisob raqamlarga o'tkazilmaydi, neustoyka (jarima, penya) hisoblanmaydi.

Mijoz bilan yuqoridagi holatlar sodir bo'lganda uch oy ichida bankka yozma ariza bilan murojaat qilishi lozim.

Mijoz ariza bilan murojaat qilgan vaqtda 90 kundan oshgan muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lmasligi, kredit tarixida 90 kundan oshgan qarzdorliklari soni

uchtadan ortiq bo'lmashligi, sud jarayonidagi qarzdorlik yuzaga kelmagan bo'lishi hamda ta'minot yetishmovchiligi aniqlansa, qo'shimcha ta'minot taqdim qilishi lozim.

Arizalarni ko'rib chiqishda quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

- o'lim guvohnomasi;
- huquqni muhofaza qilish organi sanksiyasi (ajrim, qaror, hukm va b.);
- 1-2-guruh nogironligi to'g'risida tumanlararo (viloyat/tuman) TMEK ma'lumotnomasi;

- og'ir nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalinganligi to'g'risida tuman tibbiyot birlashmasining ma'lumotnomasi;

- tibbiyot birlashmasining homiladorlik yoki bola tug'ilishini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi hamda ish joyidan homiladorlik va tug'ish ta'tili berilganligi to'g'risida buyruq;

- qarzdor mulkining yo'qolishi yoki shikastlanishini tasdiqlovchi hujjat;
- mehnat daftarchasi va boshqa tegishli hujjatlar;

Qarzdor tomonidan bankka ariza va unga ilova qilingan hujjatlar to'liq taqdim etilgan kundan boshlab 30 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi va arizani qanoatlantirish yoki rad etish yuzasidan ariza beruvchiga xabar qilinadi.

Arizalarni quyidagi tartibda ko'rib chiqiladi.

- Jismoniy shaxs BXO rahbari nomiga kredit to'lovlarini qayta ko'rib chiqishni so'rab hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan murojaat qiladi.

- BXO rahbari ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni hududiy boshqarmaga yuboradi, hududiy boshqarma boshlig'i monitoring bo'limiga yo'naltiradi.

- bankning hududdagi Monitoring bo'limi xodimi mijozning moliyaviy holati, daromadlari, so'ndirish istiqbollari mavjudligi, qarz yuki, kredit tarixi, ta'minot yetarliligi va ularning bugungi kundagi holati, birgalikda qarz oluvchi yoki kafilning moliyaviy holati tahlili, sug'urta polislarining amal qilish muddatlari, shartlari qayta ko'rib chiqilganligi, kollegial organ qarorlarining bajarilishi va boshqa ma'lumotlarini o'rganib, kreditni yangi qaytarish jadvaliga qaytara olish imkoniyatlarini o'rganib, xulosa tayyorlaydi. Xulosa mas'ul xodim, monitoring bo'limi boshlig'i, BXO rahbari tomonidan imzolab, hududiy Kredit komissiyasi muhokamasiga qaror qabul qilish uchun kiritiladi.

- ariza hududiy Kredit komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilib ijobiy qaror qabul qilinsa, yig'ilgan barcha hujjatlar ilova qilinib, bankning "Smart office" dasturi orqali Bosh bankka yuboriladi. Aks holda mijozga BXO rahbari imzosi bilan asoslantirilgan javob xati beriladi.

- "Smart office" dasturi orqali tegishli tartibda kelib tushgan hujjatlarni Monitoring departamenti mas'ul xodimi filial taqdim qilingan mavjud hujjatlar asosida xulosa tayyorlab, yakuniy qaror qabul qilish uchun bank Kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritadi.

- o'z navbatida Kredit qo'mitasi tomonidan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

- shundan so'ng, Kredit qo'mitasi kotibi tomonidan qaror ko'chirmasi "Smart office" dasturi orqali tegishli departamentlarga va hududiy bo'linmalarga ijro uchun yetkaziladi.


- hududdagi Monitoring bo'limi mas'ul xodimi ushbu qaror shartlari bilan mijozni tanishtirgan holda kredit, garov, sug'urta va boshqa tegishli shartnomalarga qo'shimcha kelishuvlarni rasmiylashtirib, belgilangan tartibda kredit shartlarini o'zgartirish bo'yicha dasturiy amaliyotlarni bajarish uchun kreditlarni boshqarish bo'limi xodimiga yo'naltiradi.

- kreditlarni boshqarish bo'limi xodimi kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq barcha hujjatlarni elektron nusxasini IABS bazasiga biriktirib, dasturda tegishli amaliyotlarni bajaradi.

- hududdagi monitoring bo'limi xodimi kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq barcha hujjatlarni asl nusxalarini kredit yig'imi jildiga tikilishini va saqlanishini ta'minlaydi.

50. Kredit qo'mitasi tomonidan mijoz arizasi rad qilingan hollarda, hududdagi monitoring bo'limi mas'ul xodimi mijozga rad etish sabablari tushuntirilgan holda asoslantiruvchi javob xati taqdim etiladi.

51. Qarz oluvchining kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha murojaati, murojaat (ariza) qabul qilingan kundan boshlab 30 ish kuni davomida ko'rib chiqilishi va mijozga xabar berilishi kerak. Loyiha bo'yicha qo'shimcha tahlil va o'rganishlar talab etilgan hollarda, ushbu muddat ko'pi bilan 45 ish kunigacha uzaytirilishi mumkin.



VI. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar monitoringi

52. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar monitoringi jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Barcha shu kabi kreditlar monitoringi muntazam ravishda amalga oshiriladi;

Monitoringni amalga oshirish amaldagi monitoring tartibi va shartlariga asoslanadi;

Zarur hollarda mijozning manziliga chiqqan holda monitoring amalga oshiriladi;

Kredit shartlari qayta ko'rib chiqilgandan keyin tuzilgan yangi to'lov jadvaliga mijoz tomonidan qat'iy rioya qilinishi nazorat qilinadi.

53. Monitoring departamenti va uning hududlardagi bo'linmalari tomonidan har olti oyda o'tgan davrlarda shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar yuzasidan Kredit qo'mitasi va bank Boshqaruviga hisobotlar taqdim etib borilishi lozim.

54. Yil davomida shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlar bir yilda bir marta, Monitoring departamenti tomonidan Boshqaruv yig'ilishlarida va Risklarni boshqarish qo'mitasining yig'ilishlarida e'lon qilib borilishi mumkin:

Shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlarning umumiy qoldig'i va soni;

Shartlari qayta ko'rib chiqilgan va "Standart" deb tasniflangan kreditlarning umumiy qoldig'i va soni;

Shartlari qayta ko'rib chiqilgan va "Substandart" deb tasniflangan kreditlarning umumiy qoldig'i va soni;

Shartlari qayta ko'rib chiqilgan va "Qoniqarsiz" deb tasniflangan kreditlarning umumiy qoldig'i va soni;

Shartlari qayta ko'rib chiqilgan va "Shubhali" deb tasniflangan kreditlarning umumiy qoldig'i va soni;

Shartlari qayta ko'rib chiqilgan va "Umidsiz" deb tasniflangan kreditlarning umumiy qoldig'i va soni.

Bundan tashqari shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar portfeli ko'rsatkichlari to'g'risida ham ma'lumotlar taqdim qilib borilish lozim. Jumladan:

qarz to'lovlari kechiktirilgan kunlar toifasi;

mijozlar segmenti;

sanoat sektori;

biznes-rejasi va qarzdorliklarni so'ndirish istiqbollari.

VII. Zaxiralarni shakllantirish

55. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom

talablari bo'yicha tasniflanadi va ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantiriladi.

VIII. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

56. Mazkur Tartib O'zRMB tomonidan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha ishlab chiqilgan yangi me'yoriy hujjatlar, ko'rsatma xatlar va boshqa qonunosti hujjatlari asosida bank Boshqaruvi qarori bilan qayta ko'rib chiqilishi yoki o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Agar bank Boshqaruvidan yuqori turuvchi vakolatli organlar tomonidan ushbu Tartibda belgilangan qoidalarga zid bo'lgan har qanday o'zgartirishlar, tushuntirishlar va boshqalar qabul qilinsa, ushbu hujjatlarda ko'rsatilgan qoidalar ustuvor hisoblanadi va Tartibga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim.

IX. Erta ogohlantirish signallari (EOS)

57. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha erta ogohlantirish signallari (EOS)ga quyidagilar kiradi.

Ko'rib chiqish sohasi	Erta ogohlantirish signallari
Moliyaviy	• Moliyaviy hisobotlarda doimiy qoidabuzarliklar; • Kredit va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida to'lanmasligi; • Bank hisobraqamiga tushayotgan pul mablag'lari kamayishi/umumiy pul aylanishining kamayishi; • Savdo amaliyotlarini bank hisobvarag'i orqali o'tkazilmasligi; • Joriy likvidlik koeffitsiyentining pasayishi; • Daromadning pasayishi, operatsion zararlar, sof yo'qotishlar vujudga kelishi; • Sof aktivlar qiymatining pasayishi; • Boshqa banklarda hisobvaraqlar ochish, pul mablag'larini yo'naltirish; • Ichki va tashqi kontekstda kredit reytinglarining yomonlashuvi.
Operatsion	• Korxona yoki biznesdagi faollik darajasi pastligi; • Tartibsiz diversifikatsiya, rejalarning tez-tez o'zgarishi; • Muddati o'tgan debitorlik qarzlari mavjudligi; • Ish haqi va kommunal to'lovlarini to'lamaslik va h.k.;

	• Tez-tez mehnat bilan bog‘liq muammolar; • Ahamiyatga ega va muhim mijozlarni yo‘qotish; • Tayyor mahsulotni tez-tez qaytarish yoki rad etish.
Bozor bilan bog‘liq	• Oddiy kredit shartlari bo‘yicha ta‘minot manbalaridan foydalanish imkoniyati yo‘qligi; • Tovarlar va xizmatlar sifati bo‘yicha shikoyatlar; • Korxonaga nisbatan sud ishlari yoki huquqiy choralar ko‘rilishi; • Bozorlarni va asosiy mijozlarni yo‘qotish; • Bozorda mahsulotga bo‘lgan afzallikning o‘zgarishi; • Hukumat siyosatidagi salbiy o‘zgarishlar; • Yangi raqobatchilarning paydo bo‘lishi; • Yangi texnologiya yoki mahsulotlarning paydo bo‘lishi.
Boshqalar	• Direktorlar, hamkorlar yoki ta‘sischilar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar; • Bank bilan aloqa qilishdan qochish; • Moliyaviy yoki korporativ hisobotlarini taqdim etmaslik yoki kechiktirish; • Moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish.
Shaxsga bog‘liq	• Shaxsiy yoki oila bilan bog‘liq tibbiy muammolar; • Ish joyini yo‘qotish va ishdan ketish; • Yo‘l-transport hodisalari; • Pul oqimi bilan bog‘liq vaqtinchalik muammolar.

X. Yakuniy qoidalar

58. Ushbu Tartibda belgilangan qoidalar amaldagi qonunchilik hujjatlari va Markaziy bankning me‘yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelmay qolgan holatlarda amaldagi qonun hujjatlariga rioya etiladi.


59. Bosh bank/BXO/BXM tarkibiy bo‘linmalarining funksiyalari boshqa tarkibiy bo‘linmalarga o‘tkazilganda, funksiyalarni qabul qilib olgan tegishli tarkibiy bo‘linma mazkur reglamentda belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha mas‘ul bo‘lib hisoblanadi.

60. Kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish Tartibi talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan bank xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

61. Mazkur Tartib bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kunning ertasidan boshlab kuchga kiradi, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, uni bekor qilish bank Boshqaruvi qarori bilan amalga oshiriladi.

Kiritildi:


Monitoring departamenti
direktori



O. Almadanov

Kelishildi:

Komplayens nazorat departamenti
direktori




J. Yusupov

Risk menejment
departamenti direktori




K. Karimov

Lingvist



D. Muxammadiyev

Korporativ biznes departamenti
direktori



D. Nomozov

Kredit amaliyotlari departamenti
direktori



F. Ataev

Chakana biznes departamenti
direktori




U. Alimov

Muammoli aktivlar bilan ishlash va
undiruv departamenti direktori



Sh. Masharipov

Kreditlarni ma'qullash departamenti
direktori




O'. Meyliyev

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig'i



S. Raxmatullayev



2025 - yil 26 - dekabr

Toshkent sh.

YURIDIK XULOSA № 212

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Komplayens nazorat departamenti tomonidan ishlab chiqilgan **“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida ajratilgan kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish (restrukturizatsiya) Tartibi**” loyihasi Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Mazkur ichki qoida Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo‘limi “Tijorat banklarining ichki qoidalarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o‘zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan bo‘lib, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqdir.

Shuningdek, hujjat loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o‘tkazilib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar aniqlanmadi.

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig‘i



S.Raxmatullayev

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot xizmati
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
XULOSASI**

2025-yil 29-oktabr

Toshkent shahri

368-son

1. Ichki me’yoriy hujjat – **Tartib**
loyihasining turi:
2. Ichki me’yoriy hujjat – **“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida
ajratilgan kredit shartlarini qayta ko’rib chiqish
(restrukturizatsiya) Tartibi**
loyihasining nomi:
3. Lingvistik ekspertizani – **D.Muxammadiyev**
o’tkazuvchi:
4. Lingvistik ekspertiza – **2025-yil 29-oktabr**
o’tkazilgan sana:
5. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o’tkazish tartibi to’g’risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo’nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubi, grammatik va orfografiya qoidalariga mos, shuningdek, soha atamaları to’g’ri qo’llanilgan.



IMZOLANGAN:
Axborot xizmati yetakchi menejeri (Davlat tili bo’yicha maslahatchi):
D.Mukhammadiev